# MUHANDISLIK
# & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



***ISSN: 3060-463X***

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, iyun.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI ........ 10
**I. R. Berdikulova**

KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI ........ 14
**Onorboev Sh.M.**

A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER ........ 26
**Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna**

FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI ........ 36
**Rahimova Volida Karim qizi**

XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL ........ 42
**Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich**

РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД ........ 49
**Дониёрова Зухрабону Алишер кизи**

KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ... 53
**Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna**

MOLIYAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI ........ 58
**Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira**

KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 61
**Davletov Ikrom Raximberganovich**

ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА ........ 67
**Салихова Алина Муратовна**

QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI ........ 73
**Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon**

XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR ........ 78
**Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon**

HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI ........ 83
**Sodiqova Nigora**

BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI ........ 89
**Muminov Bekzod Polvonovich**

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ........ 95
**Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна**

MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ........ 103
**G'aniyev Elyor Sobirjonovich**

DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY ........ 110
**Damirjon Nurmatovich Soliyev**

О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ ..... 116
**Джумаев Аскар Хайдарович**
SOLIQ MA’MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILIY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR ..... 121
**Shamsiev O‘ktam Sayfitdinovich**
KO‘P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..... 127
**Muminov Obidjon Odilovich**
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI ..... 135
**Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich**
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ ..... 141
**Джуманов А.А.**
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO‘P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH ..... 152
**B.I. Isroilov, B.B. Ibragimov**
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ ..... 158
**Мамутова Айгуль Калмурзаевна**
QUYOSH HOVUZLARIDA SODIR BO‘LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O‘LCHAMLI MATEMATIK MODELI ..... 165
**M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov**
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ..... 172
**Алиев Али Комил угли, Каримова А.**
ISTE’MOL KREDITLARINING AHAMIYATI VA O’ZIGA XOS JIHATLARI ..... 176
**S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov**
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI ..... 179
**Raximov Azamat Hamroqulovich**
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIJ TAJRIBASI ..... 183
**Ozodova Farida Zarif qizi**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОТОВАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ ..... 187
**Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна**
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEXANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, BAHO BO‘YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH ..... 192
**Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi**
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ..... 200
**Тураева А. И.**
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS ..... 204
**Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o‘g‘li**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ ..... 208
**Ибрагимов Гайратжон Артикович**
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOIY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI ..... 216
**Alimov Nasimjon Hoshimovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ... 221

**Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна**

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI ... 228

**Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi**

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI ... 233

**Ismailov Naufal Nadirovich**

RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ... 241

**Eshqobulova Charos O'roq qizi**

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING ... 245

**Begzod Nishanov**

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL ... 251

**Abdullayev Azamat Akbar o'g'li**

RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI ... 259

**Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza**

MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. ... 263

**Murodov Sherzodbek Murod o'g'li**

EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA ... 268

**Farida Nishanova**

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI ... 274

**Xakimov Zafar Ibragimovich**

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ) ... 278

**Бекимбетова Мария Махсетуллаевна**

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEXANIZMINING MIQDORIY BAHOLANISHI ... 282

**Urazmatov Jonibek Musurmanovich**

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ... 287

**Xasanova Yulduz Kayumovna**

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ ... 291

**Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна**

ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI ... 296

**B.A. Hikmatov**

ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES ... 301

**Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi**

KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI ... 307

**Rahimova Volida Karim qizi**

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI ... 312

**Jiyanov Laziz Najimovich**

# O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO‘LLARI

**Jiyanov Laziz Najimovich**
Buxoro davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi i.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy tendensiyalari, investitsion muhitni rivojlantirish omillari hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga yo‘naltirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, raqamli texnologiyalar asosida investitsion jarayonlarni soddalashtirish va hududlarning investitsion salohiyatidan samarali foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, investitsiyalarni jalb etishda byurokratik to‘siqlar, infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklovlar, huquqiy kafolatlar va institutsional barqarorlik bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi. Maqolada mazkur muammolarni bartaraf etish uchun investitsion qonunchilikni takomillashtirish, investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratish, hududiy investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli platformalardan foydalanish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, investitsion muhit, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, investitsion salohiyat, raqamli platformalar, biznes muhiti, hududiy rivojlanish, investitsion siyosat.

Аннотация. В данной статье анализируются современные тенденции привлечения инвестиций в Узбекистане, факторы развития инвестиционного климата, а также существующие проблемы. В исследовании рассматриваются вопросы направления иностранных и отечественных инвестиций в отрасли экономики, расширения государственно-частного партнёрства, упрощения инвестиционных процессов на основе цифровых технологий и эффективного использования инвестиционного потенциала регионов. Также анализируются проблемы, связанные с бюрократическими барьерами, недостаточностью инфраструктуры, ограниченным доступом к финансовым ресурсам, правовыми гарантиями и институциональной стабильностью при привлечении инвестиций. В статье предлагаются меры по совершенствованию инвестиционного законодательства, созданию благоприятной бизнес-среды для инвесторов, поддержке региональных инвестиционных проектов, использованию цифровых платформ и усилению международного сотрудничества.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, иностранные инвестиции, экономическое развитие, государственно-частное партнёрство, инвестиционный потенциал, цифровые платформы, бизнес-среда, региональное развитие, инвестиционная политика.

**Abstract.** This article analyzes modern trends in attracting investments in Uzbekistan, factors of investment climate development, and existing challenges. The study examines issues related to the allocation of foreign and domestic investments across economic sectors, the expansion of public-private partnerships, the simplification of investment processes based on digital technologies, and the efficient use of regional investment potential. It also addresses problems associated with bureaucratic barriers, insufficient infrastructure, limited access to financial resources, legal guarantees, and institutional stability in attracting investments. The article proposes measures to improve investment legislation, create a favorable business environment for investors, support regional investment projects, utilize digital platforms, and strengthen international cooperation.

**Keywords:** investment, investment climate, foreign investment, economic development, public-private partnership, investment potential, digital platforms, business environment, regional development, investment policy.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiruvchi hamda mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun investitsiya resurslarini samarali jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor shartlaridan sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, ishlab

chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda yangi ish oʻrinlarini yaratishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasida investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni yaxshilash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi koʻp jihatdan ularga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi va samaradorligiga bogʻliq. Shu sababli investitsiya resurslarini hududlar boʻyicha oqilona taqsimlash, investitsion loyihalarning samaradorligini oshirish va investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning eng muhim moliyaviy manbalaridan biri boʻlib, ishlab chiqarishning texnik va texnologik darajasini oshirish, yangi korxonalar tashkil etish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi bogʻliqlik masalalari koʻplab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. D. Rikardo oʻzining iqtisodiy qarashlarida hududlarning nisbiy ustunliklari va mavjud resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy oʻsishning muhim omili ekanligini asoslagan. Uning fikricha, investitsiyalar oqimini ragʻbatlantirishda barqaror huquqiy muhit va mulk daxlsizligini taʼminlash muhim ahamiyatga ega.

J. M. Keyns esa investitsion faollikni oshirishda davlatning faol ishtirokini zarur deb hisoblagan. Olimning taʼkidlashicha, iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish uchun davlat infratuzilmaga investitsiyalar kiritishi, biznes subyektlarini qoʻllab-quvvatlashi va investitsion jarayonlarni ragʻbatlantiruvchi mexanizmlarni yaratishi lozim. Mazkur nazariy qarashlar bugungi kunda investitsion siyosatni shakllantirish va investitsion muhitni yaxshilash boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlarning metodologik asosini tashkil etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oʻzbekistonda investitsiyalarni jalb etish masalasi iqtisodiy oʻsish, sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ish oʻrinlari yaratish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bevosita bogʻliqdir. Xalqaro adabiyotlarda investitsiyalar, ayniqsa toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar, kapital, zamonaviy texnologiya, boshqaruv tajribasi va eksport imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

UNCTAD, Jahon banki va OECD tadqiqotlarida investitsion muhitning jozibadorligi huquqiy barqarorlik, infratuzilma sifati, biznes yuritish sharoitlari, raqamli xizmatlar va investorlar huquqlarining kafolatlanishi bilan belgilanadi. Ushbu manbalarda Oʻzbekiston investitsiya siyosatida ijobiy islohotlar amalga oshirilayotgani, xususan, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat loyihalari va raqamli platformalar orqali investorlar uchun qulayliklar yaratilayotgani qayd etiladi.

Oʻzbekistonning “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xususiy sektor faolligini kuchaytirish, infratuzilmaviy loyihalarni rivojlantirish va hududiy investitsion salohiyatdan samarali foydalanish vazifalari ilgari surilgan.

Shu bilan birga, adabiyotlarda investitsiyalarni jalb etishda ayrim muammolar mavjudligi taʼkidlanadi. Jumladan, byurokratik toʻsiqlar, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklangani, investorlar uchun ochiq va tezkor axborot tizimlarining sustligi hamda huquqiy kafolatlar boʻyicha ishonchni yanada kuchaytirish zarurati koʻrsatib oʻtiladi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda investitsiyalarni samarali jalb etish uchun investitsion qonunchilikni takomillashtirish, “yagona darcha” tizimini kuchaytirish, hududlarda tayyor infratuzilmaga ega sanoat zonalarini kengaytirish, raqamli investitsiya platformalarini rivojlantirish va investorlar bilan doimiy muloqot mexanizmlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Umuman, investitsiya siyosatining samaradorligi mamlakatda barqaror iqtisodiy oʻsish, innovatsion rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Oʻzbekistonda investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy tendensiyalari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yoʻllarini oʻrganishda tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, statistik tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida investitsiya faoliyatiga oid milliy qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda iqtisodiy-statistik maʼlumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, Oʻzbekistonda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish holati, ularning tarmoqlar va hududlar kesimidagi yoʻnalishlari oʻrganildi.

Taqqoslama tahlil orqali Oʻzbekiston investitsiya siyosatining xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan oʻxshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Statistik tahlil asosida investitsiyalar hajmi, tarkibi va iqtisodiy rivojlanishga taʼsiri baholanadi. Mantiqiy umumlashtirish usuli esa mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish boʻyicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishda qoʻllanildi. Ushbu metodologik yondashuv investitsiya muhitining hozirgi holatini kompleks baholash, asosiy muammolarni aniqlash va Oʻzbekistonda investitsiyalarni jalb etish

samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy oʻsish, sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ish oʻrinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida 250 mlrd dollar investitsiyalarni oʻzlashtirish, jumladan, 110 mlrd dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadi belgilanganligi investitsiya siyosatining uzoq muddatli strategik ahamiyatini koʻrsatadi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash boʻyicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kengaymoqda, maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat hududlari rivojlantirilmoqda. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun mahalliy va xorijiy investorlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy baza sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tendensiyalar sifatida raqamli investitsiya platformalaridan foydalanish, investorlar bilan “yagona darcha” tamoyili asosida ishlash, infratuzilmaviy loyihalarni kengaytirish, yashil iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar yoʻnalishidagi investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2026-yilda Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish tashabbusi ham investorlar uchun yanada qulay moliyaviy-huquqiy muhit yaratishga qaratilgan yangi bosqich sifatida baholanmoqda.

Biroq tahlillar mavjud ayrim yoʻnalishlarda yanada takomillashtirish imkoniyatlari saqlanib qolayotganini koʻrsatadi. Jumladan, ayrim hududlarda transport-logistika va muhandislik infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ruxsat berish jarayonlarini optimallashtirish, investorlar uchun axborot shaffofligini yanada oshirish, moliya bozorlarini chuqurlashtirish hamda malakali kadrlar salohiyatini mustahkamlash investitsiya loyihalarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. OECD ham Oʻzbekiston investitsiya muhitida huquqiy-institutsional tizimni takomillashtirish, soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish va investitsiyalarni ragʻbatlantirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish muhimligini qayd etadi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, investitsiyalarni jalb etishda nafaqat imtiyozlar, balki barqaror qonunchilik, shaffof tartib-taomillar, kafolatlangan mulk huquqi, tezkor davlat xizmatlari, sifatli infratuzilma va aniq iqtisodiy samaradorlik omillari ham muhim ahamiyatga ega. Jahon banki tavsiyalarida ham Oʻzbekiston uchun toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar strategiyasini aniq maqsadlar va ustuvor tarmoqlar asosida shakllantirish muhimligi taʼkidlangan.

Tadqiqot natijalariga koʻra, Oʻzbekistonda investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yoʻnalishlar ustuvor hisoblanadi: investitsion qonunchilik barqarorligini taʼminlash, hududlarda tayyor infratuzilmaga ega sanoat zonalarini kengaytirish, investorlar uchun raqamli xizmatlarni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini koʻpaytirish, moliya bozorlarini chuqurlashtirish va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish. Shu asosda investitsiyalar mamlakatda barqaror iqtisodiy oʻsish, innovatsion rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili boʻlib xizmat qiladi. Soʻnggi yillarda mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va investorlar uchun qulay sharoit yaratish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Natijada iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yoʻnaltirilayotgan investitsiyalar hajmi izchil oʻsib bormoqda. Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilda respublikada asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trillion soʻmni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 22,1 foizga oʻsgan. Investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina va uskunalarga yoʻnaltirilgan mablagʻlar 45,9 foiz, qurilish-montaj ishlari 45,6 foiz hamda boshqa xarajatlar 8,5 foiz ulushni egallagan. Hududlar kesimida investitsiyalar tarkibi tahlili ayrim tafovutlarning mavjudligini koʻrsatadi. Xususan, Andijon viloyatida qurilish-montaj ishlari ulushi yuqori boʻlgan boʻlsa, Sirdaryo viloyatida mashina va uskunalarga yoʻnaltirilgan investitsiyalar salmogʻi yuqoriligi kuzatilgan.

2024-yilning yanvar–sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning muhim qismi toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar hissasiga toʻgʻri kelgan. Xususan, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmi 100,9 trillion soʻmni tashkil etib, umumiy investitsiyalardagi ulushi 29,4 foizga yetgan. Bu esa mamlakat investitsion jozibadorligining ortib borayotganligini koʻrsatadi (1-jadval).




1-rasm. O‘zbekistot respublikasida yillar kesinida investitsiyalar hajmi[1]

Mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash borasida salmoqli natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, ayrim yo‘nalishlarda takomillashtirish imkoniyatlari saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, investitsiyalarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi kuzatilmoqda. Investitsiya oqimlarining asosan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda jamlanishi ayrim viloyatlarda iqtisodiy faollik darajasining nisbatan past bo‘lishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, ayrim hududlarda transport-logistika, energetika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurati mavjud bo‘lib, bu investorlar uchun qo‘shimcha xarajatlarning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Inson kapitalining sifati investitsion jozibadorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir.

To‘rtinchidan, ayrim hollarda ma’muriy tartib-taomillarni yanada soddalashtirish va byurokratik jarayonlarni optimallashtirish investitsion loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasida investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Birinchi navbatda, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish zarur. Bu esa investitsiyalarning samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, zamonaviy transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va energetika tizimini modernizatsiya qilish investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Uchinchidan, investorlarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish investitsion muhitning barqarorligini ta’minlaydi. To‘rtinchidan, ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kasbiy ta’lim sifatini oshirish va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali inson kapitalining raqobatbardoshligini kuchaytirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni yaxshilash borasida muhim natijalarga erishilgan. So‘nggi yillarda investitsiyalar hajmining o‘sishi, xorijiy investorlar faolligining ortishi hamda investitsion qonunchilikning takomillashuvi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarni hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash, infratuzilma sifatini oshirish, ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari investitsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Kelgusida investitsion faoliyatni yanada takomillashtirish, innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududlarning investitsion salohiyatidan samarali foydalanish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ-598-son Qonun. https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000

1 Muallif ishlanmasi

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” O‘RQ-537-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-4329270
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. PF-60-son, https://lex.uz/ru/docs/-5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida PF-16-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7369703
5. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. OECD Publishing, 2025.
6. World Bank. Recommendations for a National Foreign Direct Investment Strategy and Roadmap for Uzbekistan: New Sources of Growth. Washington, DC: World Bank, 2022.
7. UNCTAD. World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. Geneva: United Nations, 2025.
8. Invest Uzbekistan. Investment Opportunities and Investment Climate of Uzbekistan. Official Investment Portal of Uzbekistan.
9. Ministry of Investment, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan. Official Information on Investment Policy and Ongoing Projects.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

## 2026. № 6



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**